

TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZLARIDAGI XIZMAT KO'RSATISH TURLARINI KENGAYTIRISH

Mamajonova Mahliyo

Andijon viloyati Baliqchi tumani

Axborot-kutubxona markazi

AKT xizmati xizmat rahbari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21431891>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kundagi Axborot-kutubxona markazlariga aholining qatnovini ko'paytirish va ularga qo'shimcha zaruriy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, ularning ilm olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari uchun markazning o'zida kengroq sharoit shakllantirish uchun markazning o'zida turli soha bo'yicha o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish borasida mavzu yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kutubxona, o'quv dasturi, AKT, abonoment va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish, axborot-bibliografiya, kompyuter savodxonligi, stansionar kompyuter, fan sohalari, o'qitish metodikalari.

EXPANSION OF SERVICES IN DISTRICT INFORMATION AND LIBRARY CENTERS

Annotation. This article discusses the issue of increasing the number of people visiting the current Information and library centers and organizing additional necessary services for them, creating wider conditions in the center itself to meet their educational needs, and establishing educational programs in various fields in the center itself.

Keywords: Information library, curriculum, ICT, subscription and user service, information bibliography, computer literacy, desktop computer, fields of science, teaching methodologies.

Mustaqillik yillarining boshidanoq yurtimizda yoshlarning yuqori saviyada ta'lim olishlari uchun juda katta e'tibor berildi. Sobiq sovet tuzumi xalqimizning asl tarix, fan va madaniyatni o'rganishlariga to'siq bo'ldi. Hamma sohada bo'lgani kabi ta'limda ham o'zlarining "manqurtlashtirish" rejasi asosida ish olib borishdi. Ular xalqimizga asl ilmni emas, balki, o'zlari biz uchun ravo ko'rgan, xalqni ongiga ta'sir ko'rsatib boshqarish yordam beradigan ilmni, ta'lim tizimini yo'lga qo'yishdi.

Natijada, yurtimizning ko'plab salohiyatli kishilari ham noto'g'ri aqida bilan va dunyo miqyosida olganda, juda past saviya bilan ham davlat ichida yuqori o'rinlarga ko'tarilaverishdi.

Chunki, sovet tuzumiga ham aynan ularning chizig'idan chiqmaydiganlar kerak edi.

Hozirgi kunga kelib esa yurtimiz turli sohalarda asl ilm va taraqqiyot sari ildam qadam tashlamoqda. Chunki, mustaqillik farzandlari asta-sekinlik bilan hayotda o'z o'rinlarini egallab, yurt ravnaqiga hissa qo'shishmoqda. Deyarli hamma joyda o'quv kurslari tashkil etilgan va ilm yo'lida ketmoqchi bo'lganlar o'sha yerda o'zlari uchun kerak bo'lgan bilimga ega bo'lishmoqda.

Bu yurtimizda ilmga bo'lgan e'tiborning naqadar kuchayganligini bildiradi.

Shunga qaramasdan, tumanlardagi Axborot-kutubxona markazlariga bo'layotgan tashrif juda kam.

Buning sababi shuki, hozirgi yoshlarning ilm olishlari uchun faqat kitob o'qish va dars qilishlari uchungina tashkil etilgan sharoit yetarli emas. Balki, ularning ilm olishlari uchun markazning o'zida ular uchun turli sohalarda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni yo'lga qo'yish kerak.

Masalan, "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamlashtirish" xizmati xodimlari aholiga kompyuter savodxonligi, grafik dizayn, videomuharrirlar bilan ishlash va AKTning boshqa sohalari bo'yicha o'quv kurslarini yo'lga qo'yishi mumkin. "Axborot-bibliografiya" xizmati xodimlari esa o'lkashunoslik, turizm va tarix bo'yicha shu sohalarga qiziquvchilar uchun o'quv kurslarini tashkil etishlari mumkin. "Abonoment va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish" xizmati esa o'zbek tili, adabiyot va rasmiy-idoraviy hujjatlarni yuritish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari, markaz xodimlari o'zlarining yaxshi bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa fan sohalari bo'yicha ham o'quv kurslarini tashkil etishlari mumkin.

Bu masalaning muammoli taraflari ham mavjud. Masalan, tuman Axborot-kutubxona markazlarida ishlovchilarning ko'pchiligi o'rta maxsus ma'lumotga ega va katta yoshdagilarni tashkil etadi. Oliy ma'lumotli, yosh va bu darajada bilim va saviyaga ega bo'lgan xodimlar esa bu yerdagi ish haqqiga qanoatlanmaydilar. Shuning uchun bu masalani yechish maqsadida boshqa soha yo'nalishida bo'lsa ham oliy ta'limda o'qigan yoki o'qiyotganlarni ishga olish va o'quv kurslarini nisbatan oz miqdorda bo'lsa ham pulli xizmat sifatida tashkil etib, asosiy qismini dars o'tuvchi xodimga berish kerak. Shunda, yuqori saviyadagi xodimlar uchun qoniqarli darajada foyda keladi.

Yangi xodimlarni tanlashda ko'roq talaba yoshlarga e'tibor bergan ma'qul. Shunda, ular o'qishni biturganga qadar o'zlari uchun kelajakdagi ish faoliyatini tashkil etib, yo'lga qo'yib olishadi. Shu bilan yurtimizdagi iqtidorli yosh kadrlar kerakli ish bilan ta'minlanib, avvalo Axborot-kutubxona markazlariga, keyingi yosh avlodning ham bilimli bo'lib yetishishlariga va yurtimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin bo'ladi.



1-rasm: Talabalikka talabalar tayyorlaydi.

Ta'lim hech qachon to'xtamaydi va zamonaviy mehnat bozori qat'iy qoidalarini talab qiladi. Talabni saqlab qolish uchun bilimingizni muntazam ravishda yangilab turishingiz kerak.

Eng yaxshi qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari kasbingizni yaxshi tomonga o'zgartira oladigan keng ko'lamli kurslar va dasturlarni taklif etadi. [1] Ta'lim va malaka oshirish IT-mutaxassislari faoliyatining ajralmas qismidir. Albatta, o'z-o'zini tarbiyalash birinchi o'rinda turadi, lekin ertami-kechmi hamma to'liq ta'lim olish va o'z bilimlarini sertifikat bilan tasdiqlash haqida o'ylashni boshlaydi. [2] Shuning uchun ham Axborot-kutubxona markazida qaysidir o'quv dasturining ma'lum bir darajasini tugatganlarga tegishli sertifikatlarni berishni ham yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

O'quv kursini o'tuvchi xodimlarga kerakli xonalarni tashkil etish yoki shu maqsadda xizmat ko'rsatish xonalaridan foydalanish ham mumkin. Masalan, AKT sohasidagilar uchun kompyuter xonalarini tashkil etish. Agar buning imkoni topilmasa, AKT xizmati xonasidan foydalanib turish mumkin. Boshqa kompyuter va shu kabi jihozlar bilan ishlanmaydigan o'quv kurslari uchun foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan xonalardan foydalanish mumkin. Chunki, o'quv kurslari faqatgina ma'lum bir vaqt oralig'ida bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchilar dars tugagach, o'sha yerning o'zidayoq darslarini tayyorlashlari mumkin bo'ladi. Bu o'quvchilar uchun qulay va foydali bo'lishi bilan birga Axborot-kutubxona markazida ham tashrif buyuruvchilarning ko'pchilikni tashkil etilishiga olib keladi.



2-rasm: Foydalanuvchilar uchun stansionar kompyuter.

O'quv kurslarini tashkil etishda har bir xodim o'zining dars beradigan sohasi bo'yicha o'qitish metodikalarini ishlab chiqadilar. Chunki, hamma sohalarning ham bir-biridan ajralib turuvchi taraflari mavjud.

Masalan, til va adabiyot yoki tarix kabi sohalarda ko'proq nazariy tomonlama yondashilsa, kompyuter savodxonligi va AKTning turli sohalarida amaliy yondashiladi.


Shu sababdan ham har bir xodim o'zining o'qitish metodikasini ishlab chiqadi, har bir auditoriya uchun o'qitish rejalarini ishlab chiqadi va shu tariqa o'quv dasturini tayyorlaydi.

AKT uchun jihozlarni ta'minlashda stansionar kompyuterlarning narxi yuqoriligi sabab ularni ko'pchilik uchun tashkil etish qiyinchilik tug'diradi. Bu masalani yechish maqsadida noutbuk kopyuterlaridan ham foydalanish mumkin. Ularning afzallik taraflari ham ko'p. Ular olib yurish va texnik xizmat ko'rsatish uchun qulay. Bundan tashqari, hozirgi yoshlar orasida ham ular juda ommalashmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarga ular bilan ham ishlashni o'rgatish ma'qul.



3-rasm: Foydalanuvchilar uchun o'quv darslari xonasi.

Nazariy yondashiladigan sohalar uchun "Abonoment va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish" xonalaridan foydalanish ham mumkin. Chunki, u xonalarda dars jarayonini tashkil etish uchun barcha zaruriy sharoitlar mavjud va qo'shimcha kerak bo'ladiganlarini ham tashkillartirish mumkin.



4-rasm: Tadbir va namoyishlar uchun faya.

Shu bilan birga o'quvchilarning turli xil tadbir, namoyish, sahna ko'rinishlari, taqdimot o'tkazishlari va shu kabi ishlarni o'zlashtirib, tajriba oshirishlari uchun ham Axborot-kutubxona markazlaridagi fayalar yoki shunga o'xshash kengroq bo'sh maydonchalardan foydalanish uchun kerakli sharoitlarni tashkillashtirish bilan ularning bu boradagi tajribalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, biz tuman Axborot-kutubxona markazlarining imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishimiz va ulardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak. Imkon qadar bu ishlarni sifatli tarzda tashkil etish lozim. Bu usul bilan biz eski tuzumdan chiqib, yoshlarning zamon bilan hamnafas bo'lib, yuksak taraqqiyot cho'qqilariga va ulkan zafarlar yo'liga olib chiqishimiz mumkin. Buning uchun hammamiz birgalikda yakdil bo'lib xizmat qilishimiz juda zarurdir.

Baliqchi tumani axborot-kutubxona markazi direktori.
AKT xizmati xizmat rahbari.

J. Karimov
M. Mamajonova